XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-iyun VII-11-70-12-180-K/25 Urganch shahar

Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining 2025-yil 16-maydagiVII-10-69-12-180-K-25-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Mahalliy budjet mablag‘larini oqilona sarflanishini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-24-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.“Shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi komissiyasi”ning Urganch shahar hokimi bilan kelishilgan holda Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining 2025-yil 16-maydagi VII-10-69-12-180-K-25-sonli qarori ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hamda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetga tushumlar hisobidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni talablariga muvofiq ilovada ko‘rsatilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarga shahar hokimining taklifi asosida ajratilishi belgilansin.

3.Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari J.Sapayev ushbu mablag‘lardan maqsadli sarflanishini ta’minlasin va shahar mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

4.Urganch shahar g‘aznachilik xizmati bo‘lim boshlig‘i A.Atadjanov ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda tegishli hujjatlar taqdim qilingandan keyin o‘tkazilishini ta’minlasin.

5.Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov, nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Xalimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



RADJAPOV BUNYOD MADIRIMOVICH

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2025-yil 5-iyundagi
VII-11-70-12-180-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Urganch shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hamda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetga tushumlar hisobidan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarga ajratiladigan mablag‘lar
RO‘YXATI

mln.so‘mda

t/r	Xarajat nomi	Ajratilgan summa (mln.so‘mda)	Budjet tashkiloti (budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilot) nomi
1	Tashabbusli budjet jamg‘armasi uchun	665,0	Urganch shahar hokimiyati
2	Ayollar daftari jamg‘armasiga	5,0	Urganch shahar hokimiyati
3	Yoshlar daftari jamg‘armasiga	5,0	Urganch shahar hokimiyati
4	Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma	700,5	Urganch shahar hokimiyati
5	Obodonlashtirish xarajatlaridan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun	189,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
6	Urganch shahar hokimligida tashkil qilingan situatsion-tahliliy markazida sun’iy intellekt tashkil qilish uchun	265,0	Urganch shahar hokimiyati
7	Urganch shahrida yangi tipdagi ikkita avtobekat tayyorlash va o‘rnatish ishlari uchun	80,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
8	Urganch shahar hokimligiga besedka o‘rnatish uchun	30,0	Urganch shahar hokimiyati
9	Urganch shahrini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish hamda yashil makon dasturini amalga oshirish uchun gul ko‘chat, gul urug‘i va gazon xarid qilish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun	998,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
10	Urganch shahrini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish hamda yashil	226,0	Urganch shahar obodonlashtirish

	makon dasturini amalga oshirish uchun archa hamda daraxt ko‘chatlari xarid qilish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun		boshqarmasi
11	Ma’shal hamda Gulshan MFYlariga metal profil o‘rnatish, xarid qilish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun	106,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
12	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli issiqxonalarni saqlash xarajatlari va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun	24,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
13	Urganch shahar Xonqa ko‘chasiga bordyor o‘rnatish uchun	70,0	Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi
14	Yangiariq paligonida o‘q otish hamda 2024-2025- yilda harbiy xizmatga yuborilgan SChRlarga berilgan sumkalar uchun	43,5	Urganch shahar hokimiyati
15	Urganch shahar hokimligining qarzdorliklarini qoplash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun	115,0	Urganch shahar hokimiyati
16	2024-yilda tashkil qilingan oromgohlardan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun	499,7	Urganch shahar hokimiyati
17	Urganch shahar hokimligining qo‘riqlash xarajatlari uchun	87,0	Urganch shahar hokimiyati
18	Urganch shahar hokimligining transport vositalarini joriy ta’mirlash va yoqilg‘i moylash xarajatlari uchun	55,3	Urganch shahar hokimiyati
19	Urganch shahar hokimligining kanselyariya tovar xarajatlari uchun	10,4	Urganch shahar hokimiyati
20	Urganch shahar hokimligining telefon va internet xizmati uchun	19,0	Urganch shahar hokimiyati
21	Urganch shahar hokimligining situatsion-tahliliy markaziga sayt yaratish hamda dasturlash ishlari uchun	29,0	Urganch shahar hokimiyati
22	2025-yil uchun E-qaror, XRM, E-kengash hamda ijro.gov dasturlari uchun	31,0	Urganch shahar hokimiyati
23	Urganch shahar hokimligining kompyuterlarini joriy ta’mirlash uchun	11,0	Urganch shahar hokimiyati
24	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-13-mart kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi	215,0	Urganch shahar hokimiyatii, Urganch shahar

	davomida berilgan topshiriqlari va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 17-sonli majlis bayonining 16-bandiga asosan ustama va oziq-ovqat puli uchun		iqtisodiyot va moliya bo‘limi
25	O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasining maxfiy xati asosan shahar hokimining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbariga yanvar-mart oylari ustama uchun	30,0	Urganch shahar hokimiyati
26	DXSh bo‘yicha maktablardagi chim(gazon) qoplamasi qarzdorligi	163,0	Urganch shahar hokimiyati
27	Urganch shahar hokimligining ijara to‘lovlaridan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash (ish haqi va unga tenlashtirilgan to‘lovlar, kommunal to‘lovlar hamda boshqa xo‘jalik xarajatlari) uchun	599,0	Urganch shahar hokimiyati
28	Urganch shahar hokimligi MFY raislariga to‘lanadigan ustamalaridan bo‘lgan qarzdorliklari (MIB ijro varaqalariga asosan) uchun	117,0	Urganch shahar hokimiyati
	Jami	**5 388,4**	